

U. Aksayev  
uzivo yoz  


«Davlat belgisi» davlat unitar  
korxonasi Bosh direktori  
A.Xamidovga

## BILDIRGI

«Davlat belgisi» davlat unitar korxonasining 28.10.2021-yilda tasdiqlangan “Korrupsiyaga qarshi siyosati”ning 16.2-bandiga asosan korxonaning rasmiy veb-saytiga:

“Davlat belgisi” davlat unitar korxonasida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida 2024-yil davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan umumiy hisobotni belgilangan tartibda joylashtirilishiga ruxsat berishingizni so‘rayman.

Ilova 11 varaqda

Ichki audit xizmati komplayens  
nazorat bo‘yicha bosh mutaxassis



T.X.Botirov

**“Davlat belgisi” davlat unitar korxonasining korrupsiyaga qarshi kurashish borasida 2024-yil davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan umumiy**

**H I S O B O T**

**I. Korxonaning Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi bajarilganligi to‘g‘risida umumiy axborot.**

“Davlat belgisi” davlat unitar korxonasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ishlarni tashkillashtirish borasida muayyan ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Korxonada Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 7 banddan iborat chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi va korxona Bosh direktori tomonidan 05.01.2024-yilda tasdiqlandi hamda ijroga qaratildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturiga korxona xodimlari tomonidan korrupsiya bilan bog‘liq huquqbazarliklar haqidagi ma’lumotlarni to‘siqlarsiz xabar berish imkoniyatini yaratish masalasi kiritilgan bo‘lib, bu borada 2022-yil 19-avgustda tasdiqlangan “*Korrupsiyaviy xabarlarni aloqa kanallari orqali qabul qilish va qayta ishlash Tartibi*” ga asosan ishlar olib borildi va natijada bugungi kunda xodimlar va fuqarolar tomonidan korxona xodimlarining korrupsiyaga oid xatti-harakatlari yuzasidan murojaat qilish imkoniyatini beruvchi aloqa kanallari yaratildi:

Elektron pochta ijtimoiy tarmog‘idagi aloqa kanali:  
[komplayens@davlatbelgisi.uz](mailto:komplayens@davlatbelgisi.uz).

Ishonch telefoni: (88) 148-14-22, ichki raqam: 1111;

Rasmiy veb-saytidagi aloqa kanali: [davlatbelgisi.uz](http://davlatbelgisi.uz);

Telegramm mesenjeridagi aloqa kanali: [t.me/davlat\\_belgisi](https://t.me/davlat_belgisi);

Korxona rasmiy veb-saytga korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga oid tegishli ma’lumotlar joylashtirilib borilmoqda.

Dasturga korxonada manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelishi mumkinligini oldini olish va korrupsiyaga qarshi siyosat talablariga nomuvofiqliklar vujudga kelishini bartaraf etish masalasi tadbir sifatida kiritilgan bo‘lib, bu borada “*Markaziy bank tizimida manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash va boshqarish to‘g‘risida*”gi Nizomda belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlashga qaratilgan ishlar olib borildi. (*Bu borada amalga oshirilgan ishlarga mazkur umumiy hisobotning IV-bandida batafsil ko‘rsatiladi*).

Shuningdek, Dasturga kiritilgan tadbirlardan biri, ISO 37001:2016 “*Korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimlari-talablar va tavsiyalar*” xalqaro meyor talablarini joriy etish hamda xalqaro meyor talablari ijrosini ta’minlash bo‘yicha muayyan ishlar olib borilmoqda.

Prezidentimizning 2020-yil 29-iyundagi “*O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida*”gi PF-6013-sonli Farmonida, ISO 37001:2016 korrupsiyaga qarshi kurashish xalqaro standartini qo‘llashni ko‘zda tutuvchi talabni o‘rnatish vazifasi qo‘yildi.

Shundan kelib chiqqan holda, korxonada ISO 37001:2016 “*Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi*” xalqaro standarti talablarini joriy etish bo‘yicha bir qator muayyan ishlar olib borildi.

Korxona tarkibiy tuzilmalarida ISO 37001:2016 xalqaro standarti meyor talablariga rioya etilishini ta’minlash borasida ishlar olib borilmoqda.

Dasturga kiritilgan korxona xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish va oldini olish bo‘yicha qabul qilingan meyoriy hujjatlarning mazmun mohiyati yuzasidan o‘qitilishini ta’minlash bo‘yicha choralar ko‘rib borilmoqda.

Xususan, 2022-yil 2-fevralda tasdiqlangan “*Xodimlarni etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitilishini tashkil etish bo‘yicha Yo‘riqnomalar*” asosida ishlar tashkillashtirilib, 05.01.2024-yilda tasdiqlangan 2024-yil davomida “Davlat belgisi” davlat unitar korxonasi xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha nazariy bilim va ko‘nikmalarini oshirish maqsadida o‘tkaziladigan o‘quv-seminar mashg‘ulotlari rejasi asosida barcha xodimlar uchun muntazam o‘quv-seminar mashg‘ulotlari o‘tkazilib (onlayn) kelinmoqda. (*Bu borada amalga oshirilgan ishlarga mazkur umumiy hisobotning V-bandida batafsil ko‘rsatiladi*).

Dasturga kiritilgan tadbirlardan biri korxonada korrupsiya holati, korrupsiyaga qarshi kurashish va oldini olish bo‘yicha qabul qilingan ichki meyoriy hujjatlar hamda bu borada amalga oshirilgan ishlarni korxona veb-saytida yoritib borish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi.

Korxonaning rasmiy veb-saytida “Korrupsiyaga qarshi kurashish” sahifasi yaratilib, korrupsiyaga qarshi kurashish bilan bog‘liq meyoriy-huquqiy hujjatlar va ma’lumotlar kiritilib borilmoqda.

Xususan, korxona Bosh direktori tomonidan korxona rasmiy veb-saytiga «*Korrupsiyaga qarshi birgalikda kurashamiz*» mavzusida murojaatnomasi hamda “Davlat belgisi” DUKda ISO 37001:2016 xalqaro standarti joriy etildi” nomli maqolalari joylashtirildi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “*Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida*”gi Qonuni va “Davlat belgisi” davlat unitar korxonasining korrupsiyaga

qarshi kurashish bo‘yicha ichki normativ-huquqiy hujjatlari” mavzusida seminar trening o‘tkazilib, tayyorlangan slayd materiallari korxona vebsaytidagi alohida sahifaga hamda korxona serveridagi elektron kutubxonaga joylashtirildi.

Korxonada korrupsiyaga qarshi kurashish va oldini olish bo‘yicha 2024-yilga mo‘ljallangan chora-tadbirlar Dasturi bandlari ijrosi yuzasidan ishlar davom ettirilmoqda.

## **II. Siyosat va tartib taomillar.**

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining tavsiyalariga asosan hamda ISO 37001:2016 korrupsiyaga qarshi kurashish xalqaro standarti talablaridan kelib chiqib, korxonada korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi ishlarni tartibga soluvchi ichki normativ-huquqiy hujjatlar tasdiqlangan.

Birinchi navbatda, korxonaning “*Korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati*” tasdiqlanib barcha xodimlarga tanishtirildi.

Korxonada korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirishga oid yangi tartib-taomillar va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalarini tartibga soluvchi ichki meyoriy-huquqiy hujjatlar tasdiqlandi:

Jumladan:

- “Korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati” (28.10.2021-yilda tasdiqlangan);
- “Korrupsiya xavfini baholash Uslubiyoti” (09.12.2021-yilda tasdiqlangan),
- “Kontragentlarni tekshirish bo‘yicha Yo‘riqnomasi” (09.08.2022-yilda tasdiqlangan);
- “Korrupsiyaviy xabarlarni aloqa kanallari orqali qabul qilish va qayta ishlash Tartibi” (19.08.2022-yilda tasdiqlangan);
- “Xodimlarni etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitilishini tashkil etish bo‘yicha Yo‘riqnomasi” (02.02.2022- yilda tasdiqlangan);
- “Xizmat tekshiruvi o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom (19.08.2022-yilda tasdiqlangan),
- “Korxona ishchi-xodimlari odob-axloqining oidalari” (25.10.2022-yildagi 249/1-DB-sonli buyruq bilan tasdiqlangan);
- “Sovg‘alar va vakillik xarajatlari to‘g‘risida”gi Nizom (14.11.2022- yilda tasdiqlangan);
- “Ichki audit o‘tkazish Tartibi” (14.11.2022-yilda tasdiqlangan);
- “Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni va yuqori lavozimga tayinlanayotgan hamda korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo‘lgan lavozimga doimiy ishga o‘tkazilayotgan xodimlarni o‘rganish to‘g‘risida”gi Yo‘riqnomasi (16.03.2023-yilda tasdiqlangan);

- “Davlat belgisi” davlat unitar korxonasida vakant lavozimga nomzodlarni tanlov asosida ishga qabul qilish to‘g‘risidagi Nizom (*14.03.2024-yilda tasdiqlangan*).

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruving 24.09.2022-yildagi 21/8-sonli qarori bilan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga oid ichki normativ-huquqiy hujjatlar:

- Markaziy bank tizimida korrupsiyaga oid huquqbazarliklar to‘g‘risida xabar bergen xodimlarni rag‘batlantirish hamda ularning ta’qib qilinmasligi kafolatlari to‘g‘risida Tartib;

-Markaziy bank tizimida xodimlar tomonidan mehnat faoliyati bilan bog‘liq sovg‘a va mehmondo‘stlik belgilarini qabul qilish, sovg‘a qiymati va uni tasarruf etish tartibi to‘g‘risida Nizomi ijrosi ta’milnab va amaliyotga tadbiq etib borilmoqda.

Shuningdek, Markaziy bankning 2024-yil 16-yanvardagi 68-sonli farmoyishi bilan tasdiqlangan “*O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tizimida 2024-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillarning samaradorligini yanada oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar rejasi*”ning 6.11-bandiga ko‘ra, yangi ishga qabul qilingan xodimning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini oshirish yuzasidan o‘tkazilgan o‘quv profilaktik tushuntirishda quyidagilar tushunchalar berib borilmoqda. Jumladan:

- Korrupsiya tushunchasi, uning shakllari va sabablari;
- Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik;
- Markaziy bankda korrupsiyaga qarshi kurashishga doir ichki hujjatlar;
- Korxonada korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ichki meyoriy xujjatlar;
- Korrupsiyaviy harakatlar uchun javobgarlik;
- Korxona xodimlarining mehnat shartnomasida belgilangan korrupsiyaga qarshi kurashish yuzasidan majburiyatlar.

### **III. Xavf-xatarlarni baholash.**

Korxonaga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni bajarishda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash ishlari amalga oshirildi.

Korxonada mavjud korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash ishlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “*Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-*

*tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-240-sonli Qaroriga asosan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi hamda Adliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilib, tasdiqlangan “Davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan ularning hududiy bo‘linmalari, davlat unitar korxonalari va muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash” Uslubiyotiga asosan amalga oshirildi.*

Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi, aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo‘yicha dastur ishlab chiqildi va 2024-yil 1-martida korxona Bosh direktori tomonidan tasdiqlandi.

Shuningdek, korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori hamda o‘rta darajada bo‘lgan lavozimlar ro‘yxati tasdiqlandi.

Xavf-xatarlar xaritasida korxonaga yuklatilgan 36 ta vazifa va funksiyalar baholashdan o‘tkazilib, unga ko‘ra past xavf xatar toifasiga kiritildi.

Tahlil natijasiga ko‘ra, korxona faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni umuman olganda “**past**” darajada baholanishi korxona tomonidan aholiga bevosita xizmatlari ko‘rsatilmasligi, korxona binolari alohida toifalangan ob’ekt hisoblanishi va binolar Mudofaa Vazirligi harbiy xizmatchilarini tomonidan qo‘riqlanishi hamda xaridlarni amalga oshirish, ishga qabul qilish va korxonaning nazoratga doir funksiyalarini amalga oshirish bo‘yicha qarorlarning kollegial tartibda qabul qilinishi, faoliyatning to‘liq normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinganligi, ish jarayonlarini avtomatlashirish choralarini ko‘rilganligi, korxonaga ISO 37001:2016 xalqaro standarti-korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimi talablari hamda matbaa jarayonida xavfsizlik tizimi boshqaruvi bo‘yicha ISO 14298:2021-xalqaro standarti (Intergraf) joriy etilganligi bilan izohlanadi.

#### **IV. Korxonada korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshiriladigan tartib-taomillar.**

##### **Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish.**

2024-yil 5-yanvarda tasdiqlangan xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha nazariy bilim va ko‘nikmalarini oshirish maqsadida o‘tkaziladigan o‘quv-seminar mashg‘ulotlari rejasining 2-bandiga asosan, Nizomning mazmun mohiyati va deklaratsiyani to‘ldirish talablari yuzasidan xodimlarga tushuntirishlar berildi.

Nizom talablari yuzasidan 2024-yilning 22-yanvar kuni Bosma va Qog'oz fabrikalarida, 24-yanvar kuni Zarbxona ishchi xodimlariga o'quv-seminari mashg'ulotlari o'tkazildi.

Potensial yoki real manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelganligi yuzasidan tarkibiy tarmoq rahbarlari yoki xodimlari tomonidan Ichki audit xizmatiga "Manfaatlar to'qnashuvining kelib chiqishi ehtimoli haqida" Xabarnomalar kelib tushmadi.

Shuningdek, korxona Bosh direktori imzosi bilan 2024-yil 19-yanvar kuni barcha ishchi-xodimlari tomonidan Manfaatlar to'qnashuvi mavjud yoki mavjud emasligi to'g'risida yillik deklaratsiya to'ldirilishi yuzasidan korxona rahbariyati hamda barcha tarkibiy-tarmoqlar rahbarlariga xizmat xati yuborildi hamda manfaatlar to'qnashuvini aniqlash borasida 2024-yil 1-fevral holatiga faoliyat ko'rsatayotgan ishchi-xodimlari tomonidan manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida yillik deklaratsiya taqdim etildi.

Mazkur deklaratsiyalar tahlil qilinib, potensial manfaatlar to'qnashuvi holatlari yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatlar manfaatlar to'qnashuvi reyestriga kiritildi.

"Davlat belgisi" davlat unitar korxonasida manfaatlar to'qnashuvi holatlarini yuzaga kelishning oldini olish choralar ko'rib borilmoqda.

Корхонада 2024-йил давомида во'sh ish o'rinaliga nomzodlarni lavozimga tayinlashda 39 nafar hamda 155 nafar xodimlarning lavozimi o'zgartirilishi (rotatsiya) munosabati bilan deklaratsiyalar to'ldirilgan va Nomzodlarni o'rganish reyestriga kiritildi.

Shuningdek, bo'sh ish o'rinaliga nomzodlarni lavozimga tayinlash hamda lavozimini o'zgartirish (rotatsiya) jarayonida nomzodlarning manfaatlar to'qnashuvi mavjud/mavjud emasligi to'g'risidagi deklaratsiyalari tahlil qilinib borildi.

### **Korrupsiyaga qarshi qoidalarni korxona shartnomalariga kiritish.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6013-sun Farmonining 3-bandiyetinchi xat boshi ijrosi yuzasidan ya'ni, davlat xaridlari sohasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish maqsadida davlat buyurtmachisi ISO 37001:2016 korrupsiyaga qarshi xalqaro standartini qo'llashni ko'zda tutuvchi talabni o'rnatish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi.

Jumladan, korxonada Davlat xaridlari jarayonlarida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash maqsadida, "Davlat belgisi" davlat unitar korxonasida davlat xaridlari amalga oshirish to'g'risida"gi Nizom ishlab chiqildi va 2022-yil 11-yanvarda tasdiqlandi.

Shuningdek, “Kontragentlarni tekshirish bo‘yicha Yo‘riqnomasi” ishlab chiqildi va 2022-yil 9-avgustda tasdiqlandi.

Xususan, ijrochilar tomonidan kontragentlar tekshirilib, xarid komissiyasi qarori asosida shartnomalar tuzilmoqda.

Korxonada xaridlarni amalga oshirishda tuziladigan xo‘jalik shartnomalariga korrupsiyaga va qonunchilikning boshqacha tarzda buzilishlariga yo‘l qo‘ymaslik hamda manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish bo‘yicha shartlar kiritildi.

### **Kontragentlarni tekshirish.**

“Davlat belgisi” davlat unitar korxonasida davlat xaridlarini amalga oshirish to‘g‘risida”gi Nizom ishlab chiqildi va bosh direktor tomonidan 2022-yil 11-yanvarda tasdiqlandi.

Shuningdek, “Kontragentlarni tekshirish bo‘yicha Yo‘riqnomasi” ishlab chiqilgan va 2022-yil 9-avgustda korxona Bosh direktori tomonidan tasdiqlangan.

Korxonada 2024-yil davomida jami 839 ta xo‘jalik shartnomalari tuzilgan.

Korxonada kontragentlarni o‘rganishga oid Yo‘riqnomasi talablari asosida xaridlarni tender, tanlov va to‘g‘ridan-to‘g‘ri amalga oshirishda ishtirokchilarda affillanganlik, manfaatlar to‘qnashuvi va boshqa korrupsiyaviy xatarlarni oldini olishga qaratilgan kontragentlar bo‘yicha o‘rganishlar o‘tkazilib, yo‘riqnomasi talablari asosida kontragentlarni o‘rganish reyestri shakllantirilgan.

Kontragentlarni o‘rganish jarayonida manfaatlar to‘qnashuvi holatlari aniqlanmadи.

### **Ishga kirish uchun nomzodlarni tekshirish.**

Korxonaga ishga qabul qilishga nomzodlarni tanlash bo‘yicha “Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni va yuqori lavozimga tayinlanayotgan hamda korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo‘lgan lavozimga doimiy ishga o‘tkazilayotgan xodimlarni o‘rganish to‘g‘risida”gi Yo‘riqnomasi ishlab chiqilgan va Bosh direktor tomonidan 2023-yil 16-martda tasdiqlangan.

Shuningdek, “Davlat belgisi” davlat unitar korxonasida vakant lavozimga nomzodlarni tanlov asosida ishga qabul qilish to‘g‘risidagi Nizom ishlab chiqilgan va Bosh direktor tomonidan 2024-yil 14-martda tasdiqlangan.

Korxonaga 2024-yil davomida jami 71 nafar nomzodlar ishga kirish uchun hujjat topshirgan.

O‘tkazilgan tanlov natijalariga ko‘ra 39 nafar nomzodlar ishga qabul qilingan bo‘lib, ular bo‘yicha komplayens-nazorat xizmati tomonidan o‘rganish ishlari o‘tkazilgan.

Nomzodlarni ishga qabul qilishda shaffoflikni ta'minlash maqsadida, korxonaning rasmiy vebsaytda korxonada mavjud bo'sh ish o'rnlari joylashtirilib kelinmoqda.

Korxona ichki mehnat tartibi qoidalari va xodimlar bilan tuzilgan mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi shartlar kiritildi.

## V. Xodimlarni o'qitish va kommunikatsiya tadbirlari.

05.01.2024 yilda tasdiqlangan "Davlat belgisi" davlat unitar korxonasi xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha nazariy bilim va ko'nikmalarini oshirish maqsadida o'tkaziladigan o'quv-seminar mashg'ulotlari yillik rejasi asosida barcha xodimlar uchun muntazam o'quv-seminar mashg'ulotlari o'tkazilib (oflays) kelinmoqda. 2024-yil davomida 22 marotaba o'tkazilgan o'quv seminar mashg'ulotlarida korxonaning xodimlari ishtiroy etgan va o'tkazilgan o'quv-seminar mashg'uloti yuzasidan bayonnomalar rasmiylashtirilgan.

Korxona Bosh direktori tomonidan "«Davlat belgisi» DUKning rasmiy vebsaytiga «Korrupsiyaga qarshi birgalikda kurashamiz» mavzusida hamda "Davlat belgisi" DUKda ISO 37001:2016 xalqaro standarti joriy etildi" nomli maqolalari joylashtirilgan.

Shuningdek, Markaziy bankning 2024-yil 16-yanvardagi 68-sonli farmoyishi bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tizimida 2024-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillarning samaradorligini yanada oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar rejasi"ning 6.11-bandiga ko'ra, yangi ishga qabul qilingan xodimning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirish yuzasidan o'tkazilgan o'quv profilaktik tushunchalar berib borilmoqda.

Bundan tashqari, korxona rasmiy vebsaytida korrupsiyaga qarshi kurashish bilan bog'liq ichki normativ-huquqiy hujjatlar berib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida Qonun ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Huquqni muhofaza qilish akademiyasi va Muassis xamkorligida korxonada "Manfaatlar to'qnashuvi holatlarini aniqlash, ularni bartaraf etish hamda oldini olish" mavzusida korxona boshqaruva xodimlari maxsus elektron platforma orqali masofaviy o'quv kursida o'qilib, kurs yakunlari yuzasidan mavzuga oid testlarda ijobiy natijalarga erishib xodimlarga elektron maxsus sertifikatlar taqdim qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan Bosh prokuratura va Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan kelishilgan holda "Manfaatlar to'qnashuviga oid" ishlab chiqilgan onlayn test sinovlari bo'yicha korxonaning xodimlari test.adliY.uz sayti orqali test topshirdi.

## **VI. Korrupsiyaviy xatti-harakatlar va huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi xabarlar.**

Hisobot davrida xodimlarning korrupsiyaviy xatti-harakatlari, manfaatlar to‘qnashuvi, korrupsiyaga qarshi boshqa qonunbuzarliklar bilan bog‘liq masalalar to‘g‘risida mavjud aloqa kanallari orqali xabarlar kelib tushmagan.

## **VII. Monitoring va nazorat**

2024-yilning 20-yanvaridan 28-fevraliga qadar Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi hamda Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan 31.08.2022-yilda tasdiqlangan Uslubiyotga asosan korxonada korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash o‘tkazildi.

Natijasiga ko‘ra, xavf-xatar xaritasi tuzilib, 01.03.2024-yilda korxona Bosh direktori tomonidan tasdiqlandi hamda xavf-xatar darajasi yuqori va o‘rta bo‘lgan lavozimlar ro‘yxati shakllantirildi.

Shuningdek, 2024-yilning 19-yanvardan 16-fevraliga qadar korxonada manfaatlar to‘qnashuvi mavjud yoki mavjud emasligi ahvoli xodimlardan deklaratsiya to‘ldirish orqali o‘rganilib, tahlil qilindi. Tahlil natijalari rahbariyatga ma’lum qilindi va reyestrga kiritildi.

Bundan tashqari, Korxona Bosh direktorining 20.10.2022-yildagi 245-DB-sonli buyrug‘i asosida har chorakda korrupsiyaga qarshi kurashish boshqaruvi tizimi jarayonlari va ularning natijadorlik mezonlarini o‘rganilib buyruqda belgilangan natijalariga erishib borilishini ta’minlash nazorat qilib borilmoqda.

## **VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta’sir choralari.**

Korxonada 2024-yilning 9 oyida o‘tkazilgan monitoring va nazorat tadbirlari davomida korrupsiyaviy harakat deb hisoblangan holatlar aniqlanmadи.

## **IX. Xulosalar.**

“Davlat belgisi” davlat unitar korxonasida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida 2024-yil davomida bir qator muayyan ishlar amalga oshirildi.

Xususan, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining tavsiyalariga asosan hamda ISO 37001:2016 xalqaro standart talablaridan kelib chiqib, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq tegishli ishlar bajarilib kelinmoqda.

Shuningdek, “Davlat belgisi” davlat unitar korxonasida vakant lavozimga nomzodlarni tanlov asosida ishga qabul qilish to‘g‘risidagi Nizom ishlab chiqilib, 14.03.2024-yilda tasdiqlandi.

“CERT International” MCHJ tomonidan korxonada ISO 37001:2016 xalqaro standart talablariga ko‘ra korxonada korrupsiyaga qarshi kurash ishlari va komplayens nazorati tuzilmasi faoliyati tomonidan amalga oshirigan ishlar yuzasidan auditi o‘tkazildi. 2024-yil 18-aprelda auditi o‘tkazildi hamda audit natijasiga ko‘ra, korxona ISO 37001:2016 xalqaro standart talablariga muvofiq ishlar bajarilayotganligi to‘g‘risida xulosa qilindi.

Korxonaga ishchi-xodimlarlarni ishgaga qabul qilishda shaffoflikni ta’minlash maqsadida, korxonaning rasmiy vebsaytida bo‘sh ish o‘rinlar sahifasi ochildi va unda korxonada mavjud bo‘sh ish o‘rinlari joylashtirilib kelinmoqda.

Personal bilan ishslash boshqarmasi tomonidan korxona lavozim majburiyati talablaridan kelib chiqib, “Davlat belgisi” davlat unitar korxonasining rasmiy vebsayti “**davlatbelgisi.uz**” orqali bo‘sh ish o‘rinlari haqida e’lon berish ishlari bajarilmoqda.

Bundan tashqari, Mehnat vazirligining “**ish.mehnat.uz**” saytiga ham bo‘sh ish o‘rinlari haqidagi ma’lumotlar kiritilib borilmoqda.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish yuzasidan o‘quv-semenar mashg‘ulotlari tasdiqlangan rejalar asosida o‘tkazilib borilmoqda.

Korxonaning rasmiy vebsaytida “Korrupsiyaga qarshi kurashish” sahifasi yaratilib, korrupsiyaga qarshi kurashish bilan bog‘liq meyoriy-huquqiy hujjatlar va ma’lumotlar kiritilib borilmoqda.

Korxona tarkibiy tarmoqlar faoliyatidagi xavf-xatarlar o‘rganilib, 2024-yil uchun korrupsiyaviy xavf-xatarlar baholandi.

Manfaatlар to‘qnashuvi mavjudligi yoki mavjud emasligini aniqlash bo‘yicha korxona rahbariyati va barcha xodimlari tomonidan Yillik deklaratsiya to‘ldirildi, tahlil qilindi va reyestrga kiritildi hamda natijasi korxona Bosh direktoriga ma’lum qilindi.

“Davlat belgisi” davlat unitar korxonasi xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qonunchilik hamda ichki hujjatlar talablari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini baholash yuzasidan 2024-yil 25-28-iyun kunlarida onlayn test sinovlari o‘tkazildi.

Test sinovi natijalariga ko‘ra, unda ishtirok etgan xodimlarning 382 nafari (52,12%) “a’lo”, 301 nafari (41,07%) “yaxshi”, 50 nafari (6,81%) “o’rtta” baholandi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2024-yil 9-iyuldaggi 20-17/221-sonli xati ijrosi yuzasidan “Davlat belgisi” davlat unitar korxonasi xodimlari manfaatlар to‘qnashuvi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini baholash uchun onlayn test sinovi 2024-yil 9-11 iyul kunlarida hamda Markaziy bankining 2024-yil 27-avgustdagи 20-17/276-sonli xatiga muvofiq korxona xodimlari manfaatlар to‘qnashuvi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini baholash uchun onlayn test sinovi 2024-yil 27-30 avgust kunlari o‘tkazildi.

Olib borilgan ishlar natijasida, korxonada 2024-yil davomida korrupsiya bilan bog‘liq holatlar qayd etilmadi.

## **X. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar va tadbirlar rejasi.**

Korxonada korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada samarali rivojlantirish bo'yicha takliflar:

- Korxona xodimlarini korrupsiyaga oid qonunchilik va shu sohaga tegishli ichki normativ-hujjatlar haqida xabardorligini oshirish bo'yicha muntazam o'quv mashg'ulotlarini o'tkazib borish;

- Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash yo'nalishlari va indikator ko'rsatkichlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash;

- "Davlat belgisi" davlat unitar korxonasida korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olish bo'yicha 2025-yilga mo'ljallangan maqsadlar va ularni amalga oshirish yuzasidan chora-tadbirlar Dasturi" bandlari ijrosini belgilangan muddatlarda sifatli ta'minlash.

  
**Ichki audit xizmati  
komplayens-nazorat bo'yicha  
bosh mutaxassisi**

**T.X.Botirov**